



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

### Umumta’lim maktablarida o‘quvchilar bilimini baholash jarayonini raqamlashtirish va ta’lim jarayonida shaffoflikni ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmonida belgilangan vazifalardan kelib chiqib o‘quvchilar bilimini baholash jarayonini raqamlashtirish va shaffofligini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 6-sentabrdagi “Ta’lim jarayonini boshqarishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi 284-sonli buyrug‘iga muvofiq, respublikada faoliyat olib borayotgan 6028 ta umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida Kundalik.com joriy etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

“Kundalik” elektron sinf jurnalini yuritish bo‘yicha ko‘rsatmalar 1-ilovaga muvofiq;

2022-2023-o‘quv yilida Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi umumta’lim muassasalarida Kundalik milliy raqamli ta’lim platformasi joriy etilmaydigan maktablar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. 2022-2023-o‘quv yilidan boshlab:

barcha respublika umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida an’anaviy qog‘oz ko‘rinishidagi sinf jurnallari va qog‘oz kundaliklarni yuritish bekor qilinsin (mazkur buyruqni 2-ilovasida ko‘rsatilgan maktablar bundan mustasno);

o‘quvchilarning davomatini va bilimini baholash jarayonini raqamlashtirishda Kundalik.com milliy raqamli ta’lim platformasidan (keyingi o‘rinlarda - Platforma) foydalanilsin.

4. Ichki audit va moliyaviy nazorat boshqarmasi (B.Axmedov) O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2019-yil 11-fevraldagi 55-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi ta’lim muassasalarida xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish hamda buxgalteriya hisobini yuritilishi va hisobotlarning to‘g‘ri tuzilishi dasturi” yuzasidan o‘tkaziladigan o‘rganishlarda elektron jurnaldan foydalansin.

5. Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni muvofiqlashtirish boshqarmasi (J.Fozilov) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi respublika ta’lim muassasalaridan o‘quvchilar

davomatiga oid ma'lumotlarni o'z vaqtida olish, tahlil qilish vazifalari Kundalik.com tizimi orqali amalga oshirilishini nazorat qilsin.

6. Ta'lim sifati jarayonlarini muvofiqlashtirish departamenti (L.Xo'jaqulov)ga:

tizimda o'quvchilarni baholash va dars rejalarini o'z vaqtida qayd etib borish; har o'quv yilning boshiga qadar taqvimiy mavzularni Platformaga yuklanishini nazorat qilib borish vazifalari yuklatilsin.

7. Belgilansinki:

a) Umumta'lim muassasasi direktori:

O'zbekiston Respublikasining "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida" 2019-yil 2-iyuldagi O'RQ-547-son Qonuni talablariga rioya etish;

elektron jurnalni o'z vaqtida yuritish;

elektron jurnalga kiritilgan ma'lumotlarga o'zgartirish kiritilishining oldini olish;

elektron jurnalni yuritishda, fan o'qituvchilari tomonidan yo'l qo'yilgan, inson omiliga bog'liq xatolarga o'zgartirish kiritish maqsadida tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limiga rasmiy xat bilan murojaat qilish;

maktab psixologi lavozimidagi xodimni Platformadagi sinflarga a'zo bo'lganini va "Psixolog" guruhlarini tuzib, o'quvchilar hamda ota-ona (o'quvchining qonuniy vakili) bilan doimiy muloqotda bo'lishini muvofiqlashtirish;

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 6 sentabrdagi 284-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatida avtomatlashtirilgan axborot tizimi bilan ishlash va arxivlash tartibi haqida nizom" talablariga muvofiq hujjatlarni arxivlashtirishni umumta'lim muassasasining o'zida tashkillashtirishni amalga oshiradi.

b) Umumta'lim muassasasi o'quv va tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari:

elektron jurnal yagona tizimida muassasaning tizimdagi bosh administratori faoliyatini olib borish;

fan o'qituvchilari tomonidan baholash mezoniga doir o'quvchilarni baholash jarayoni faqat dars o'tilgan sananing o'zida olib borilishini nazorat qilish;

o'qituvchilar tomonidan har bir o'zgartirilgan baholarning sababi va omillarini aniqlagan holda tegishli hujjatlar to'plamini yig'ib muassasa rahbariga taqdim etish;

elektron jurnalni o'z vaqtida va to'g'ri yuritilishi bo'yicha o'tkazilgan tekshiruvlarda aniqlangan kamchiliklar yuzasidan izoh yozib qoldirish;

fan o'qituvchilari tomonidan dars rejasiga asosan tegishli mavzu yuzasidan "Darsni ishlab chiqish rejasini"ni tizimga yuklatilganligini nazorat qilishni amalga oshiradi.

d) Umumta'lim muassasasi ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari:

fan o'qituvchilari tomonidan olib borilayotgan o'quvchilar davomatini monitoring qilib, kun davomida statistik ma'lumot to'plab, maktab direktoriga taqdim etilishi;

maktab hayotiga doir tadbirlarni “yangiliklar sahifasi” va “tadbirlar” bo‘limida yoritib borilishi;

5 ta muhim tashabbus doirasida umumta’lim muassasalarida tashkil etilgan to‘garaklar, seksiyalar va klublarda o‘quvchilarning qamrovini tahlil qilish bilan birgalikda kiritilayotgan ma’lumotlarni monitoring qilib, choraklik hisobot olib borilishini ta’minlaydi.

e) Sinf rahbari:

ota-ona (o‘quvchining qonuniy vakili) uchun Platformada profil yaratib, vaqtinchalik Login va Parolni tarqatish;

ota-onalar va o‘qituvchilar uchun unutilgan Login va Parolni tiklash tartibi hamda o‘quvchi va ota-ona (o‘quvchining qonuniy vakili)ning shaxsiy ma’lumotlarini uzatish uchun javobgar bo‘lish;

ota-ona (o‘quvchining qonuniy vakili)ning Platformadagi faolligini doimiy ravishda kuzatib borish, zarurat tug‘ilganda ularga aloqaga chiqib profilaktik suhbat olib borish. Profilaktik suhbat o‘z ijobiy natijasini bermagan taqdirda maktab direktoriga ma’lumot kiritish;

sababli (kasalligi, oilaviy sharoitidan kelib chiqqan holda) dars qoldirgan o‘quvchilarni sinf jurnalida maxsus belgilar (s, dq, k, kq, m, ch, q, ns, tq) bilan belgilab chiqish;

o‘quvchi sababsiz 3 soat dars qoldirsa kerakli hujjatlar to‘plamini yig‘ib, muassasa rahbariga taqdim etish;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyatida avtomatlashtirilgan axborot tizimi bilan ishlash va arxivlashtirish tartibi haqidagi nizomga muvofiq belgilangan vazifalar bajarilishini ta’minlaydi.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev va vazir o‘rinbosari R.Karimjonov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



B. Saidov

Toshkent sh.,  
2022-yil “24”-iyun,  
205 - son

## **“Kundalik” elektron sinf jurnalini yuritish bo'yicha KO'RSATMALAR**

1. “Kundalik” elektron sinf jurnali Davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlarini bajarilishini aks ettiruvchi davlat hujjati hisoblanadi.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari boshliqlari “Kundalik.com” avtomatlashtirilgan axborot tizimi uchun tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limida mas'ul xodim (tizim administratori)ni buyruq bilan tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi.

3. Maktab direktori va direktorning o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosarlari sinf jurnallarini to'g'ri yuritilishini quyidagi tartibda (“Hisobotlar” bo'limidan) nazorat qiladilar va “Jurnal olib borish haqida izoh” bo'limida qoldiradilar.

4. “Kundalik” elektron sinf jurnalida bir o'quv yili uchun yagona hisobot davri yuritiladi.

5. Elektron jurnallarda parallel bo'lgan sinflar uchun alohida jurnallar yaratiladi “1-A, 1-B” ko'inishida. Uyda yakka tartibdagi ta'lim olayotgan o'quvchilar uchun sinf tarkibidagi guruh (yil boshida), alohida sinf (korreksion) shaklda (yil o'rtasida) yaratiladi.

6. Sinf jurnallarida o'quvchilarning familiyasi va ismi maktab ta'lim tiliga qarab kirill yoki lotin alifbosiga asoslangan yozuvlarda kiritilishi sinf rahbariga yuklatiladi

7. Dars jadvali kiritilgandan keyin shakllanadigan fan o'quv rejasi va dars rejada mavzular choraklarga bo'lib kiritiladi. Har chorakda o'quv rejani kiritish birinchi raqamdan boshlanadi va bir chorak uchun to'liq kiritishga ruxsat beriladi. Alohida kiritish ham xato hisoblanmaydi.

8. Qisqartirilgan mavzular (bayram/ishlanmaydigan kunlar) bitta sanada / (drob) belgisi bilan qayd etiladi. Masalan, “Dars mavzusi” ustunida: Gaz bosimi. / Paskal qonuni. “Kelasi dars uchun uy vazifasi” ustunida: 12-§, 6-8-bet, 4-topshiriq. / 13-§ 9-12-bet. 2-topshiriq. Jurnalda qo'shimcha ustunlar ochilmaydi.

9. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirining 2010-yil 20-iyuldagi “Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari bilimlarini nazorat qilishning takomillashtirilgan reyting tizimi joriy etish to'g'risida”gi, 178-son buyrug'iga asosan fan jurnali sahifasida o'quvchilarning foydalangan ballari va aniqlangan baholari qayd etib boriladi. Bir katakda tizimda 1 ta baho qayd etiladi.

10. Fan o'qituvchisi belgilangan tartibda chorak, yillik, imtihon va natija ustunlariga:

10.1. 1-9- sinflar:

a) 0,5 va 1 soatlik darslar uchun:

1-3-choraklarda kichkina "OZ" (Ozod) belgisi qo'yiladi;

2-4-choraklarda baho va ushbu choraklarda "Kundalik" elektron sinf jurnalida ko'rsatilgan 1-, 2- chorak o'rtacha ballarining o'rtacha bahosi 2-chorak ustuniga, 3-,4- chorak o'rtacha ballarining o'rtacha bahosi 4-chorak ustuniga kiritiladi;

yillik bahoga 2 va 4-chorak baholarining o'rtacha bahosi qo'yiladi;

natija ustuniga yillik ustunidagi baho ko'chiriladi;

Imtihoni bo'lsa, yillik bilan imtihon bahosining o'rtacha bahosi natija ustuniga qo'yiladi;

b) 2 va undan ortiq soatli darslar uchun:

1-, 2-, 3-, 4-choraklarda "Kundalik" elektron sinf jurnalida ko'rsatilgan o'rtacha ballarga asoslangan holda o'rtacha baho yillik ustuniga qo'yiladi;

imtihoni yo'q fanlar barchasi imtihon ustuniga katta "X" (iks) belgisini qo'yishadi;

natija ustuniga yillik ustunidagi baho ko'chiriladi. Imtihoni bo'lsa, yillik bilan imtihon bahosini o'rtacha bahosi qo'yiladi.

10.2 10-11-sinflar:

a) 0,5 va 1 soatlik darslar uchun:

1-3-choraklarda kichkina "OZ" (Ozod) belgisi qo'yiladi;

2-4-choraklarda baho va ushbu choraklarda "Kundalik" elektron sinf jurnalida ko'rsatilgan 1-, 2-chorak o'rtacha ballarining o'rtachasi 2-chorak ustuniga, 3-, 4-chorak o'rtacha ballarining o'rtacha bahosi 4-chorak ustuniga kiritiladi;

1-yarim yillik ustuniga 2-chorak baholari, 2-yarim yillik ustuniga 4-chorak baholari ko'chirib qo'yiladi;

yillik ustuniga birinchi yarim yillik va ikkinchi yarim yillik baholarining o'rtacha bahosi qo'yiladi;

imtihoni yo'q fanlarda imtihon ustuniga katta "X" (iks) belgisini qo'yiladi;

imtihoni bo'lsa, yillik bilan imtihon bahosini o'rtachasi natija ustuniga qo'yiladi;

natija ustuniga yillik ustunidagi baho ko'chiriladi.

b) 2 va undan ortiq soatli darslar uchun:

1-, 2-chorak baholarining o'rtacha bahosi birinchi yarim yillik ustuniga;

3-, 4-chorak baholarining o'rtacha bahosi 2-yarim yillik ustuniga kiritiladi;

yillik ustuniga birinchi yarim yillik va ikkinchi yarim yillik baholarining o'rtachasi qo'yiladi;

imtihoni yo'q fanlarda imtihon ustuniga katta "X" (iks) belgisi qo'yiladi;

imtihoni bo'lsa, yillik bilan imtihon bahosini o'rtacha bahosi natija ustuniga qo'yiladi;

natija ustuniga yillik ustunidagi baho ko'chiriladi.

11. Journallar bo'lim orqali tegishli sinf tanlanib, kerakli fan orqali sinf jurnali sahifasiga kirib, dars o'tilgan sana ustuniga darsda qatnashgan o'quvchilarni 30% ni baholab, dars sahifasi bo'limidagi "Dars o'tildi" qaydiga belgi qo'yish zarur. O'quvchilar o'z vaqtida (9.00-21.00 gacha 1 smenali maktablar uchun, joriy kundan ertasi kuni 13.00 gacha 2 smenali maktablar uchun) baholanmasligi, belgining

qo'yilmasligi o'qituvchini dars o'tmaganligini bildiradi va ushbu dars uchun haq to'lanmaydi

12. "Kundalik" elektron sinf jurnalidagi baholar onlayn va oflayn tartibda kiritiladi. Onlayn tartibda kiritilgan baholar "O'zgarishlar tarixi" bo'limida kuzatib boriladi va 72 soat ichida o'zgartirish (to'ldirish)ga ruxsat beriladi. Boshqa holatlarda tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limiga rasmiy xat bilan murojaat qiladi.

13. Sinf rahbari "bir kunlik jurnal"da fanlar ostidagi "PR" ustuniga har kunlik davomat belgilarini quyidagi tartibda qo'yib boradi:

s – "kichik", hech qanday sababsiz dars qoldirganligini ko'rsatish uchun;

dq – "kichik", sababli dars qoldirganligini ko'rsatish uchun;

k – "kichik", kasallik sababli dars qoldirganligini ko'rsatish uchun;

kq – "kichik", darsga kechikib kerganligini ko'rsatish uchun;

m – "kichik", surunkali dars qoldirayotganligini ko'rsatish uchun;

ch – "kichik", respublikadan tashqariga ruxsatsiz chiqib ketganligini ko'rsatish uchun;

q – "kichik", ta'lim olishga ota-onasi qarshilik qilayotganligini ko'rsatish uchun;

ns – "kichik", ota-ona nazoratsizligi sababli darsga kelmaydiganligini ko'rsatish uchun;

tq – "kichik", turmushga chiqqanligi tufayli darsga kelmaydiganligini ko'rsatish uchun qo'yish belgilanadi.

14. Fan o'qituvchilari tomonidan o'quvchilarning darsdagi davomatlari dars boshlanishida onlayn tarzda quyidagi tartibda qayd etiladi:

s – "kichkina", hech qanday sababsiz dars qoldirganini ko'rsatish uchun;

kq – "kichik", darsga kechikishni ko'rsatish uchun.(baxolash mumkin).

15. "Dars rejasi" sahifasida "Dars mavzusi KTR"ga asoslangan holda kiritiladi.

16. Qaror qo'shish" – "Sinf sozlamalari" – "Qarorlar" bo'limidagi ma'lumot sinf rahbar tomonidan to'ldiriladi.

17. O'quv yili oxirida sinf rahbari "Jurnallar" – "Chop etish" orqali jurnalni O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 6 sentabrdagi 284-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatida avtomatlashtirilgan axborot tizimi bilan ishlash va arxivlash tartibi haqida nizom" talablariga muvofiq hujjatlarni chop etadi va umumta'lim maktabi direktoring o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosariga topshiradi.

18. O'quv yili oxirida 9- va 11-sinflarni bitiruvchi deb belgilanadi va Attestat ma'lumotlari kiritiladi.

19. Elektron jurnal qat'iy nazorat ostidagi maktab hujjati bo'lib, 25 yil saqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirining  
2022-yil "24"-iyundagi  
205-son buyrug'iga  
2-ILOVA

**Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumta'lim muassasalarida Kundalik milliy  
raqamli ta'lim platformasi joriy etilmaydigan maktablar**

**RO'YXATI**

T/r	Hudud nomi	Tuman (shahar) nomi	Maktab nomi
1	Andijon viloyati	Andijon shahar	26-sonli aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun yordamchi maktab
2	Andijon viloyati	Andijon shahar	12-sonli aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab-internati
3	Andijon viloyati	Andijon shahar	13-sonli aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab-internati
4	Andijon viloyati	Asaka tumani	14-sonli aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab-internati
5	Andijon viloyati	Asaka tumani	16-sonli aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab-internati
6	Andijon viloyati	Shahrixon tumani	15-sonli aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab-internati
7	Andijon viloyati	Xo'jaobod tumani	17-sonli kar bolalar uchun maktab-internati
8	Andijon viloyati	Xo'jaobod tumani	4-sonli aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun yordamchi maktab

9	Andijon viloyati	Xo'jaobod tumani	Zaif eshituvchilar bolalar uchun maktab-internati
10	Andijon viloyati	Baliqchi tumani	9-sonli kolioz bilan kasallangan bolalar uchun maktab-internati
11	Andijon viloyati	Buloqboshi tumani	11-sonli sanatoriy turdagi maktab-internati
12	Jizzax viloyati	Zomin tumani	13-sonli umumta'lim maktabi
13	Jizzax viloyati	Zomin tumani	59-sonli umumta'lim maktabi
14	Jizzax viloyati	Yangiobod tumani	8-sonli umumta'lim maktabi
15	Jizzax viloyati	Yangiobod tumani	14-sonli umumta'lim maktabi
16	Jizzax viloyati	Yangiobod tumani	17-sonli umumta'lim maktabi
17	Jizzax viloyati	Forish tumani	28-sonli umumta'lim maktabi
18	Jizzax viloyati	Forish tumani	31-sonli umumta'lim maktabi
19	Jizzax viloyati	Forish tumani	37-sonli umumta'lim maktabi
20	Jizzax viloyati	Forish tumani	49-sonli umumta'lim maktabi
21	Jizzax viloyati	Forish tumani	51-sonli umumta'lim maktabi
22	Jizzax viloyati	Forish tumani	69-sonli umumta'lim maktabi
23	Jizzax viloyati	Forish tumani	74-sonli umumta'lim maktabi
24	Jizzax viloyati	Forish tumani	76-sonli umumta'lim maktabi
25	Qashqadaryo viloyati	Qarshi shahar	17-sonli imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus maktab
26	Qashqadaryo viloyati	Qarshi shahar	18-sonli ko'rish bo'yicha imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus maktab-internati
27	Qashqadaryo viloyati	Qarshi shahar	33-sonli imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus maktab
28	Qashqadaryo viloyati	Chiroqchi tumani	19-sonli imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus maktab



29	Qashqadaryo viloyati	Muborak tumani	19-sonli umumta'lim maktabi
30	Qashqadaryo viloyati	Muborak tumani	26-sonli umumta'lim maktabi
31	Qashqadaryo viloyati	Muborak tumani	27-sonli umumta'lim maktabi
32	Navoiy viloyati	Uchquduq tumani	14-sonli umumta'lim maktabi
33	Navoiy viloyati	Uchquduq tumani	16-sonli umumta'lim maktabi
34	Navoiy viloyati	Uchquduq tumani	19-sonli umumta'lim maktabi
35	Navoiy viloyati	Konimex tumani	21-sonli umumta'lim maktabi
36	Navoiy viloyati	Tomdi tumani	17-sonli umumta'lim maktabi
37	Namangan viloyati	Kosonsoy tumani	45-sonli imkoniyati cheklangan bolalar uchun yordamchi maktab-internati
38	Namangan viloyati	Norin tumani	47-sonli imkoniyati cheklangan bolalar uchun davlat ta'lim muassasasi
39	Namangan viloyati	To'raqo'rg'on tumani	48-sonli imkoniyati cheklangan bolalar uchun yordamchi maktab-internati
40	Namangan viloyati	Yangi Namangan tumani	49-sonli imkoniyati cheklangan bolalar uchun davlat ta'lim muassasasi
41	Toshkent viloyati	Angren shahar	9-sonli imkoniyati cheklangan bolalar uchun yordamchi maktab
42	Toshkent viloyati	Angren shahar	34-sonli tayanch-harakat a'zolari shikastlangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internati

43	Toshkent viloyati	Angren shahar	73-sonli skolioz bilan kasallangan bolalar uchun sanatoriy turidagi maktab-internati
44	Toshkent viloyati	Bekobod shahar	15-sonli imkoniyati cheklangan bolalar uchun yordamchi maktab
45	Toshkent viloyati	Bo'stonliq tumani	125-sonli imkoniyati cheklangan bolalar uchun yordamchi maktab
46	Toshkent viloyati	Chinoz tumani	Respublika qiz bolalar o'quv tarbiya muassasasi
47	Toshkent viloyati	Chinoz tumani	4-sonli Sil va nafas olish organlari surunkali kasallik xavfi bo'lgan bolalar uchun sanatoriy turidagi maktab-internati
48	Toshkent viloyati	Chirchiq shahar	23-sonli imkoniyati cheklangan bolalar uchun yordamchi maktab
49	Toshkent viloyati	O'rta Chirchiq tumani	124-sonli imkoniyati cheklangan bolalar uchun yordamchi maktab
50	Toshkent viloyati	Ohangaron shahar	7-sonli imkoniyati cheklangan bolalar uchun yordamchi maktab
51	Toshkent viloyati	Olmaliq shahar	6-sonli imkoniyati cheklangan bolalar uchun yordamchi maktab
52	Toshkent viloyati	Olmaliq shahar	80-sonli kar va zaif eshituvchi bolalar uchun maktab-internati
53	Toshkent viloyati	Oqqo'rg'on tumani	78-sonli imkoniyati cheklangan bolalar uchun yordamchi maktab
54	Toshkent viloyati	Pskent tumani	79-sonli imkoniyati cheklangan bolalar uchun yordamchi maktab

55	Toshkent viloyati	Qibray tumani	42-sonli tayanch-harakat a'zolari shikastlangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internati
56	Toshkent viloyati	Quyichirchiq tumani	Quyichirchiq tumani Qorako'l
57	Toshkent viloyati	Yangiyo'l shahar	11-sonli yordamchi maktab